

**МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNI SENSOR
QOBILIYATLARINI RIVOJLANISHIDA FAOLIYATLARNING O'RNI**

Zokirova Xulkar Ruzibayevna

Sirdaryo viloyati Yangiyer shahar, 6-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti
tarbiyachisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining sensor qobiliyatlarini rivojlantirishda faoliyat jarayonlarining muhimligi va ulardan foydalanish usullari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim tashkiloti, sensor qobiliyat, bilish faoliyati, mehnat faoliyati, o'yin faoliyati, direktor, tarbiyachi, tarbiyalanuvchi, moslashuv, ijtimoiylashuv, omil, vosita.

Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim muassasalarida sensor tarbiyaga katta e'tibor berilmoqda va ko'p joylarda Montessori metodikasi ishlatilmoqda. Ushbu metodika maxsus muassasalarda poydevor sifatida ishlatilmoqda. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining kichik guruhidan boshlab savod o'rgatishga tayyorlash ishlari bolalarni buyumlarning nomi, shakli, katta – kichikligi, rangi bilan tanishtirish hamda ularda bu xossalarni to'g'ri idrok qilish ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari sensor tarbiya sohasiga kiradi. Bu tarbiya qanchalik to'g'ri hal qilinsa, bolalarning faqat aqliy tarbiyasigagina emas, balki estetik, jismoniy, ahloqiy tarbiyasi ham muvaffaqiyatli bo'ladi, ya'ni bola umuman samarali rivojlanib boradi. Ma'lumki, idrok qilish, sezish natijasida aqliy harakatlar – narsa va hodisalarning xususiyatlarini analiz, hamda sintez qilish, umumlashtirish va abstraktsiyalash jarayoni yuzaga keladi, bu esa bilish faoliyatining zarur sharti hisoblanadi. Sensor harakatlarning rivojlanish darajasi bolaning qobiliyatlari

shakllanayotganda, hamda muayyan bilimlarni egallash jarayonida muhim ahamiyatga ega.

Bola shakl va rangni idrok qilish qobiliyati rivojlangan bo'lsa, u tevarak – atrofdagi narsalarning xossalarini har tomonlama ko'ra biladi va his qila oladi. Bu esa ularning tasvirlash, rasm chizish, loydan, qog'oz va matodan qirqib xar xil narsalar yasash, hamda ko'rish – yasash ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon beradi. Sensor jarayonlar, ayniqsa savod o'rgatishga tayyorlash davrida alohida ahamiyatga ega, chunki voqelikdagi narsa va hodisalarning shakli, katta – kichikligi, rangi va boshqa xossalarini aniq idrok qilish qobiliyati ayniqsa xat – savodni o'zlashtirish uchun zarur. Bolalar bilan sensor tarbiyani amalga oshirishda quyidagi tartibdan boshlash lozim: Bolani o'zini va atrof olamdagi narsalarni tasavvur qilishini shakllantirish;

Kommunikativ malakalarini shakllantirish; Bolani o'quv faoliyatiga tayyorlash. Ushbu ishlar to'g'ri yo'lga qo'yilagandan so'ng sensor tarbiyani rivojlantiruvchi taklif etilgan ta'limiy metodikalar amaliyotga tadbiiq etiladi.

Bunday ta'limiy metodikalariga quyidagilarni kiritish mumkin: Ko'ruv sensor qobiliyatini rivojlantirish maqsadida “O'xshash ranglilarni top” metodikasi. Bu metodika uchta bosqichda tashkil etilib, ushbu metodika orqali murakkab nuqsonga ega bo'lgan bolalarning ranglarni, shakllarni va hajmga oid tushunchalarini shakllantirishga erishish mumkin. Bunda avvalo turli rang, shakl va hajmga ega bo'lgan rasmlar tushirilgan kartochkalar taqdim etiladi. Keyin bolalarga bir nechta mashg'ulotlar davomida bu tushunchalar o'rgatiladi. Ma'lum bir mashg'ulotlar ketma – ketligidan so'ng bolalarning ushbu tushunchalarni o'zlashtirganlik darajasi tekshiriladi. Ya'ni ushbu kartochkalar ko'rsatilganda bola o'sha kartochkaga nisbatan javob reaksiyasi qaytarishini ko'rishimiz mumkin.

1. Masalan, rangni aniqlash so'ralganda ko'k bo'lsa osmonga qaraydi, sariq bo'lsa xuddi quyoshdan ko'zi qamashgandek ko'rsatadi, oqni ko'rsatganda qog'ozga ishora qiladi, yashilda esa tashqariga qaraydi, qora rangni bildirish uchun ko'zini yumadi va hokazo.

2. Ikkinchi bosqich shakllarga oid tushunchalarni shakllanganligini aniqlashga oid kartochkalar beriladi. Agar bolaga kvadrat shakli taqdim etilsa, derazaga ishora qiladi, doira shaklida lampochka tomonga boshini ko'taradi, uchburchak ko'rsatilganda esa ikki qo'lini uchini birlashtirib nazoratchiga qaraydi, to'rtburchak shaklida eshikni qo'li bilan ko'rsatadi.

3. Uchinchi bosqichda hajm tushunchasining shakllanganlik darajasi aniqlanadi. Ikki xil hajmga ega bo'lgan kartochkadagi rasmlar bolaga ko'rsatilganda qaysi kartochkada kichik hajmli predmet berilgan bo'lsa bola o'sha tomonga boshini egib javob reaksiyasini qaytaradi. Shuningdek, bolaning eshituv sensor tarbiyasini shakllantirish maqsadida turli zamonaviy vositalardan foydalangan maqsadga muvofiq. Bunda turli tabiatda yuz beruvchi hodisalarining, predmet va hayvonlarning ovozlari yozib olinib bolaga eshittiriladi, bola shu ovozni harakat va mimika orqali tushuntirib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Rodionovna, M. S. (2023). THE USE OF MODERN TEACHING TECHNOLOGIES IN KOREAN LANGUAGE CLASSES. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 4(11), 99-106.
2. Rodionovna, M. S. (2023). FORMATION OF CULTURAL COMPETENCE OF A TEACHER OF KOREAN LANGUAGE AS A SUBJECT OF THEORETICAL RESEARCH. *Вестник науки и творчества*, (7 (89)), 12-15.
3. МЕН, С. Р., & АЛИ, Г. Ю. ЗАНЯТИЯ ПО КОРЕЙСКОМУ ЯЗЫКУ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ВИДЕОМАТЕРИАЛОВ (КИНОФИЛЬМ «집으로»). *О 'ZBEKISTON-KOREYA: O 'ZARO HAMKORLIKNING BUGUNGI KUNI VA ISTIQBOLLARI*, 118.

4. Караева, М. (2024). INVESTIGATING THE THREE-STEP APPROACH FOR EFFECTIVE KOREAN IDIOM TEACHING. *Science and innovation*, 3(B2), 194-195.
5. Караева, М. (2024). ISSUES OF FORMATION OF PHRASEOLOGICAL COMPETENCE IN A FOREIGN LANGUAGE. *Science and innovation*, 3(B2), 182-184.
6. Rizayeva, X. U. (2022). МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ TASHKILOTLARINING KUNDALIK TA’LIMYIY FAOLIYATI DAVOMIDA MILLIY QADRIYAT TUSHUNCHALARINI BOLA ONGIGA SINGDIRILISH DARAJASI. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 1(4), 129-134.
7. Rizayeva, X. (2022). МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA MILLIY QADRIYAT TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISHDA OILA VA MAHALLANING ROLI. *Science and innovation*, 1(B8), 2165-2168.
8. Ризаева, Х. У., & Искандаров, Н. Р. (2023). МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ЁШИДАГИ БОЛАЛАРДА МЕЎНАТ ТАРБИЯСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 7(1), 89-98.
9. Ubayevna, R. X. (2023). БАТАРЕЙКАЛАР ВА ULARNING BOLA НАЙОТИДАГИ САЛБИЙ ТА’СИРИ. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 7(1), 83-88.
10. Akramova, D. (2022). ACTIVITIES OF FUTURE TEACHERS-PSYCHOLOGISTS IN THE SYSTEM OF PRESCHOOL EDUCATION. *Science and Innovation*, 1(8), 322-326.
11. Акрамова, Д. Э. (2023). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ РАЗВИТИЯ МЕХАНИЗМОВ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ И ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ГИБКОСТИ У СТУДЕНТОВ КАК ПРОБЛЕМА СОВРЕМЕННОСТИ. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 13(8), 19-23.
12. Akramova, D. (2022). Bo'lajak pedagog-psixologlarning maktabgacha ta'lim tizimidagi faoliyati. *Science and innovation*, 1(B8), 322-326.
13. Akramova, D. (2022). Oliy ta'lim muassalari talabalarida pedagogik-psixologik moslashuvchanlikni mazmun mohiyati. *Science and innovation*, 1(B8), 2150-2153.
14. Akramova, D. (2022). THE ESSENCE OF PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FLEXIBILITY IN STUDENTS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. *Science and Innovation*, 1(8), 2150-2153.
15. Bradburn N. *The Structure of Psychological Well-Being*. Chicago, 1969. 318

